Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga O’mon Mudofaa vazirligi Qo’mondonlik-shtab fakulteti talabalari tashrif buyurdi

Bugun, 13-aprel kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida O’mon Mudofaa vazirligi Qo’mondonlik-shtab fakulteti talabalari tashrif buyurdi. Tashrif doirasida mehmonlar Institut faoliyati bilan yaqindan tanishdilar hamda “O’zbekiston tarixi va uning O’rta Osiyo mintaqasidagi qo’lyozmalarni asrashdagi o’rni” mavzusida seminar tashkil etildi.

Ma’ruzani O’zR FA Sharqshunoslik instituti direktori t.f.d., professor Bahrom Abduhalimov o’qidi. Ma’ruza arab tilida bo’ldi. Olim ma’ruzasida O’zbekiston tarixining mintaqadagi o’rni haqida qimmatli ma’lumotlar berdi. Jumladan, arablar orqali kirib kelgan Islom dinining mamlakat va mintaqa tarixidagi o’rni haqida ham gapirib, O’rta Osiyo yetishtirib bergan qomusiy olimlar, din ulamolarining dunyo sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasini ta’kidladi. Shuningdek, O’zbekiston tarixining xronologik rivojlanish bosqichlari, unda hukm surgan davlatlarning rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari haqida xorijlik mehmonlarga qimmatli ma’lumotlarni ulashdi.

Bundan tashqari, ma’ruzada Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo’lyozmalar fondi hamda Institutning O’mon davlati bilan olib borayotgan faol hamkorligi haqida ham to’xtalib o’tildi.

Ma’ruza so’nggida mehmonlar o’zlarining qiziqtirgan savollariga javob oldi.

Ma’lumot o’rnida, Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar fondi 1943-yilda, o’sha paytdagi xalq kutubxonasi (hozirgi Milliy kutubxona)ning Sharq bo’limi asosida tashkil etilgan. Shundan boshlab bu fondda qo’lyozma manbalarni o’rganish ishlari boshlangan.

Fondda 26 ming jild qo’lyozma, 40 ming jildga yaqin qadimgi toshbosma uslubidagi kitoblar saqlanadi. Bundan tashqari, 5 mingdan ziyod asl nusxadagi tarixiy hujjatlar bor. Shuningdek, mikrofilm va fotokopiyalar fondlarimiz ham bor. Bu video va fotolar xorijdagi fondlarda saqlanayotgan kitoblardan olingan.

Bu ulkan meros fanning turli sohalariga oid. Xususan, tabobat, kimyo, matematika, tarix, islom ilmlari — ajdodlarimiz shug’ullangan barcha fan sohalariga doir manbalar o’rin olgan. Qo’lyozma manbalar IX asrdan boshlab XX asrgacha bo’lgan davrga oid bo’lib, arab, fors, qadimgi turkiy va boshqa sharq tillarida yozilgan.